

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc 03/30.11.2024.PED.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JUMAYEVA SEVARA DUSMURATOVNA

**OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING KREATIV
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Jumayeva Sevara Dusmurotovna

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Жумаева Севара Дусмуратовна

Совершенствование методики развития творческих компетенций студентов высших учебных заведений25

Jumaeva Sevara Dusmurotovna

Improving the methodology for developing creative competencies of students of higher education institutions49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc 03/30.11.2024.PED.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JUMAYEVA SEVARA DUSMURATOVNA

**OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING KREATIV
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.Phd/Ped7817 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pulatova Durdona Ravshanovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Komilov Nodirbek Boqijonovich

Pedagogika fanlari doktori, professor

Sodiqova Iroda Ilhom qizi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ da _____-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.A.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

N.M.Ahmedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.A.Atadjanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc),dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xamjamiyatining globallashuvi xorijiy tillarni muloqot vositasi sifatida o'rganish, professional bilimlarni o'zlashtirish, shaxsning lingvistik tafakkuri bilan bir qatorda madaniyatlararo sezgirlik, kontekstga mos til tanlay olish, kodlararo almashinuv (code-switching) ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini yanada kuchaytirmoqda. Ushbu masala zamonaviy dunyoda jahon tillaridan biri sifatida e'tirof etilayotgan ingliz tilini o'rgatish va o'qitish nuqtayi nazaridan ahamiyati yuqoridir. UNESCO, OECD, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) va boshqa xalqaro tashkilotlar ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etmoqda¹. Xususan, CEFR 2020 yildagi yangilangan talqinida "mediation", "plurilingual competence" va "creative language" kabi kompetensiyalar alohida e'tiborga olingan. Bu esa til o'rganish jarayonini endilikda oddiy kommunikativ faoliyat bilan cheklamay, balki ijodiylikni rag'batlantiruvchi integrativ yondashuvlar orqali tashkil etishni taqozo etadi.

Rivojlangan davlatlar: AQSH, Xitoy Xalq Respublikasi, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda ta'lim tizimining turli bosqichlarida kreativ, kommunikativ, ekologik, kasbiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa global miqyosda raqamli transformatsiya va mehnat bozorida innovatsion talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy mutaxassisdan faqat kasbiy bilim emas, balki muammoli vaziyatlarni kreativ hal etish, madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etish layoqatini namoyish etishni talab qilmoqda. Ingliz tilini tasviriy san'at va haykaltaroshlik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga o'qitish jarayonida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-pedagogik e'tiborni talab etadi. Bu kompetensiyalar nafaqat ularning kasbiy rivojiga, balki xalqaro miqyosda o'z sohasida samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha olib borilayotgan izchil siyosat, plyuralizm va xalqaro hamkorlik strategiyasining amaliy ifodasi sifatida ta'lim tizimida ikki va undan ortiq xorijiy tilni chuqur o'rganishga oid multilingval bilimdonlikka qat'iy talablar belgilamoqda. "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart"². Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini har bir sohadagi bo'lajak mutaxassislariga, jumladan, mazkur tadqiqot ishi obyektiga bo'lgan bo'lajak rassom, xaykaltaroshlarga samarali o'rgatish va o'qitishning zamonaviy metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish, uni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish, bu boradagi xorijiy tajribalarni o'rganish, chet tillarini puxta o'zlashtirgan turli soha mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 * IAU HORIZONS. https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light_.pdf

² Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son, 2017-yil 20-aprelda «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, 2018-yil 5-iyunda PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 11-avgustda VMQ-610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-mayda PQ-5117-son, “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy - ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy tilni o‘qitishda kasbiy va metodik tayyorgarlik sifatini rivojlantirish, kreativ va universal kompetensiyalarni rivojlantirish muammolari bo‘yicha N.M.Ahmedova, J.J.Jalolov, Sh.A.Atadjanova, G.T.Maxkamova, Z.Sh.Yariyeva, D.Usarova, A.A.Musayeva, D.T.Pardayeva, M.M.G‘ofurov, D.X.Yusupova, D.Ruzmetova, I.B.Utayeva, M.U.Xolmatova, S.A.Tursunov, D.Saydazimova, D.Abdullayeva, F.Negovalar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan ta‘limda kreativ kompetensiya muammolari bo‘yicha I.A.Sharshov, T.V.Gretskaya, A.V.Xutorskoy, L.V.Vygotskiy, A.N.Leontyev, A.Tixonov, S.A.Vodyaxa, O.N.Kishko, O.N.Ovsiyannikova, N.D.Galskova, E.V.Levicheva, A.V.Galkina, G.A.Xalyushova, T.V.Tyuleneva chet tilini o‘qitishda faoliyatga asoslangan yondashuv masalalari bo‘yicha V.I.Andreev, A.G.Asmolov, N.V.Kuzminalar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Xorijda o‘rganilayotgan muammoning ayrim aspektlari bo‘yicha K.Boudreault, J.Drakos, K.Robinson, J.P.Guilford, D.Simpson, E.P.Torrance, J.R.Sternberg, R.Carter, T.Lubart, J.Harmer, G.Ellis, D.Brown, M. Nunan, T.Hutchinson, A.Waters tadqiqot ishlari tadqiq qilingan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika,

multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik modelini takomillashtirish;

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

talabalarda kreativ kompetensiyaning rivojlanganlik darajalarini aniqlashda sifat ko‘rsatkichlari va ijodiy baholash mezonlarini ishlab chiqish va samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni bo‘lib, pedagogik tajriba-sinovda O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika universiteti 60110900 - Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi talabalarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida 456 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun, metod, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida adekvat holatda o‘rganishni ta‘minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy, tasnifiy), diagnostik (kuzatish, anketa so‘rovlari, nazorat), prognostik (umumlashtirish, baholash), pedagogik eksperiment va matematik (ma‘lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar), didaktik materiallar, miniatyura, chizmalar, ijodiy ishlar metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ijodiy tafakkurni kengaytirishga qaratilgan ijodiy sezgirlik, lingvistik ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi o‘zini ifoda eta olish layoqatini oshirish, yangi g‘oyalarni ilgari surish, nostandart muammolarga kreativ yondashish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish salohiyatidan foydalanishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli amaliy yondashuvlar va tamoyillarning tizimli birligini asoslash, vizual va estetik tafakkurni ifodalash, tilni o‘zlashtirish ta‘limiy integratsiyaga ko‘ra, o‘qitish samaradorligini oshirish hamda ilmiy-innovatsion va kreativ g‘oyalarning konseptual, mazmunli, prossessual va diagnostik-natijaviy bloklar uzviyligiga funksional bog‘liqligini isbotlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi VTS-visual thinking strategy, TBL-task-based learning, CPS-creative problem solving, Creative concentration usullariga ko‘ra, Canva, padlet va flipgrid adaptiv ta‘lim platformalari yordamida lingvistik, san‘at va madaniyat, ijodiy topshiriqlar mazmunidagi interaktiv mashqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi tasviriy yechimlarning ijodiy, jamoaviy muhitda samarali muloqot va muammoli vazifalarni hal qilishga qaratilgan va o'zini-o'zi rivojlantirishga yo'naltirilgan estetik uyg'unlikni anglash natijaviyligini ta'limiy maqsadlarga mos ravishda ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari tasviriy san'at yo'nalishi talabalarida ingliz tili muhitida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan;

innovatsion-tasviriy ta'lim muhiti sharoitida ingliz tilini o'rganishda talabalar kreativligini rivojlantirishga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

talabalar kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

"Integrated skills" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2025 yil 30 yanvardagi 6/3.1-son qarori).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ish jarayonida qo'llanilgan metodikalar, yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlar ishonchli manbalardan olinganligi; uning davlat siyosatiga mosligi; amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi; tanlangan ilmiy-tadqiqot metod, shakl va didaktik material-vositalarining mavzuga mosligi; olingan natijalarning matematik statistik tahlili natijalarining ko'rsatkich darajasi yuqoriligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tasviriy san'at yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining muhim xususiyatlari ochib berilgan; kreativlik tushunchasining mazmun-mohiyati o'rganilgan; talabalarda kreativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan va ilmiy asoslangan; talabalarda ingliz tilini o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlar, oliy ta'lim muassasalari talabalariga xorijiy tillarni o'qitish mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari belgilandi. Oliy ta'lim muassasalarda ingliz tili mashg'ulotlarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish holati bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostik so'rov usullarini joriy etishda; talabalarga ingliz tilini o'qitishda kreativ kompetensiyani rivojlantirish modelini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishda; talabalarga ingliz tilini o'qitishda kreativ kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydigan didaktik imkoniyatlarni eksperimental tekshirishda; nutq faoliyati turlari bo'yicha didaktik va metodik ta'minoti hamda mazkur tadqiqot materiallaridan o'qituvchilar malakasini oshirish kurslaridagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarida va shu soha rivoji bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ijodiy tafakkurni kengaytirishga qaratilgan ijodiy sezgirlik, lingvistik ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi oʻzini ifoda eta olish layoqatini oshirish, yangi gʻoyalarni ilgari surish, nostandart muammolarga kreativ yondashish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish salohiyatidan foydalanishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalardan “Integrated skills” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025 yil 8-maydagi 11-05-2975/04-son dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kreativ kompetensiyasini rivojlantirishni didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirishga erishildi;

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli amaliy yondashuvlar va tamoyillarning tizimli birligini asoslash, vizual va estetik tafakkurni ifodalash, tilni oʻzlashtirish taʼlimiy integratsiyaga koʻra, oʻqitish samaradorligini oshirish hamda ilmiy-innovatsion va kreativ gʻoyalarning konseptual, mazmunli, prosessual va diagnostik-natijaviy bloklar uzviyligiga funksional bogʻliqligini isbotlash asosida takomillashtirishga doir takliflardan “Integrated skills” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025 yil 8-maydagi 11-05-2975/04-son dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modeli takomillashtirildi;

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi VTS-visual thinking strategy, TBL-task-based learning, CPS-creative problem solving, Creative concentration usullariga koʻra, Canva, padlet va flipgrid adaptiv taʼlim platformalari yordamida lingvistik, sanʼat va madaniyat, ijodiy topshiriqlar mazmunidagi interaktiv mashqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirishga xos tavsiyalardan “Integrated skills” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025 yil 8-maydagi 11-05-2975/04-son dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir mashqlar tizimi ishlab chiqildi;

talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi tasviriy yechimlarning ijodiy jamoaviy muhitda samarali muloqot va muammoli vazifalarni hal qilishga qaratilgan va oʻzini-oʻzi rivojlantirishga yoʻnaltirilgan estetik uygʻunlikni anglash natijaviyligini taʼlimiy maqsadlarga mos ravishda taʼminlash asosida aniqlashtirishga oid takliflardan “Integrated skills” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025 yil 8-maydagi 11-05-2975/04-son dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi takomillashtirish samaradorligi mezonlar va ularning koʻrsatgichlar aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 11 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matni 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tili muhitida oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha adabiyotlar tahlil qilingan, kreativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari o'rganilgan va talabalarda ingliz tilidagi kreativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik holati aniqlangan.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha sohalarda, jumladan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda keng ko'lamli, integratsiyalashgan va modernizatsiyalashgan yangilanishlarni qamrab olayotgani bilan ajralib turadi. Ushbu islohotlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishning samaradorligini oshirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

San'at sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o'zlashtirish ularning kasbiy faoliyatini xalqaro maydonga olib chiqishda, zamonaviy san'at oqimlari bilan tanishishda, xorijiy hamkasblar bilan samarali muloqot o'rnatishda muhim kommunikativ vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ingliz tilini o'qitish jarayonida ijodiy yondashuv, san'at va til o'rtasidagi integratsiyani ta'minlaydigan metodik modellarni qo'llash dolzarb metodik vazifa hisoblanadi.

Kreativ kompetensiya pedagogik adabiyotlarda shaxsning yangicha fikrlash, nostandart muammolarga ijodiy yondasha olish, yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati sifatida izohlanadi. Ushbu kompetensiyani ingliz tili darslarida rivojlantirish, bir tomondan, talabalarni til vositasida muloqot qilishga tayyorlasa, ikkinchi tomondan, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, san'atni ifoda etishning universal vositasi sifatida chet tilidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, ingliz tili muhitida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik zarurat sifatida e'tirof etilishi zarur. Bunday kompetensiyalarni rivojlantirish esa o'z navbatida, pedagogdan metodik bilimlar, innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish salohiyati, shuningdek, ta'lim jarayonini kreativ asosda tashkil eta olish qobiliyatini talab qiladi. Mazkur yondashuv

ijodiy salohiyatga ega, global fikrlaydigan, zamonaviy axborot-madaniy muhitda samarali faoliyat yurita oladigan yangi avlod rassomlarini tayyorlashga xizmat qiladi.

“Kreativlik” tushunchasi ingliz tilidagi “create” - “yaratmoq” va “creative” - “ijodkor, yaratuvchan” soʻzlari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, insonning yangicha fikrlash, nostandart yondashuv asosida gʻoyani ilgari surish, mavjud bilim va tajribalarni qayta ishlash orqali yangi mahsulotlar yaratish salohiyati sifatida izohlanadi. Gʻarbona yondashuvda kreativlik - bu yangilikka intilish, tasavvur, erkin fikr va hazil-mutoyiba bilan bogʻliq boʻlsa, sharqona tafakkurda u - ezgulikni anglash va uni qayta yaratish jarayoni sifatida talqin etiladi. Har ikkala madaniy yondashuvda ham kreativlik shaxsiy rivojlanishning muhim mezon sifatida eʼtirof etiladi.

Amerikalik olim P.Torrans tomonidan aniqlangan kreativlikning toʻrtta asosiy koʻnikmasi ingliz tilini oʻqitish muhitida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim metodik tayanch boʻla oladi: ravonlik, moslashuvchanlik, oʻziga xoslik, yaratuvchanlik. P.Drapeau esa kreativ fikrlashni quyidagi toʻrtta yoʻnalishda rivojlantirishni taklif qiladi: talabalarda kreativ fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish; amaliy kreativ faoliyatni tashkil etish; ijodiy jarayonlarni taʼlim mazmuniga integratsiyalash; kreativ mahsulotlar yaratish va ulardan taʼlimda foydalanish.

Oʻzbekiston taʼlim muhitida ham bu yoʻnalish boʻyicha ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Jumladan, J.J.Jalolov fikricha, ijodiy tafakkur muammolarga noanʼanaviy yondashuvni, yangi gʻoyalarni ishlab chiqishni va muqobil yechimlar yaratishni oʻz ichiga oladi. Bu tafakkur jarayoni shaxsning tasavvuri, tajribasi va bilimlarini yangicha tarzda qayta ishlashi orqali yuzaga chiqadi. Yu.O.Badelbayevaning fikricha, chet tili madaniy aloqalar va fikr almashish vositasi boʻlib, alohida kompetensiyalarga ega boʻlishni talab qiladi. Shunday kompetensiyalardan biri – ijodiy oʻzini ifodalash imkoniyati. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish boʻyicha ish olib borilmasa, chet tilini oʻrganish faqat reproduktiv faoliyat darajasida qoladi. D.Usarovning fikricha, talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda nutq faolligini ragʻbatlantiradigan va ijodiy nutq qobiliyatini rivojlantirishga hissa qoʻshadigan turli xil taʼlim usullarini qoʻllash, shuningdek, talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish boʻyicha vaziyatlarni yaratishi kerakligi tahlil eilgan. Sh.S.Sharipov esa talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik sharoitlarini tadqiq qilgan.

E.E.Tunik fikriga koʻra, kreativ kompetensiyani shaxsning emotsional-intellektual holati bilan bogʻliq kompleks sifatida tasvirlaydi. Unga koʻra, bu kompetensiya ijodiy vazifalarni hal etish uchun nafaqat bilim, balki motivatsiya va hissiy barqarorlikni ham talab etadi. A.N.Leontyev esa kreativ kompetensiyani faoliyatga tayyorlik va innovatsion yondashuvda ifodalanuvchi ijtimoiy faol pozitsiya deb hisoblaydi. A.Tixonov esa bu tushunchani "noanʼanaviy yondashuvda aks etadigan kompleks koʻnikmalar majmuasi" deb belgilaydi.

Fikrimizcha, kreativ kompetensiya ijtimoiy-psixologik, madaniy-estetik va didaktik shart-sharoitlar mavjud boʻlgan taqdirda samarali rivojlanadi. Yaʼni,

talabaning ijodiy fikrini faollashtirish uchun u o‘zini xavfsiz, erkin va ilhomlantiruvchi muhitda his qilishi lozim.

XXI asrda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – talabalarni mustaqil fikrlaydigan, muammolarni ijodiy hal eta oladigan, kommunikativ jihatdan faol va moslashuvchan shaxs sifatida rivojlantirishdan iboratdir. Bu vazifa ayniqsa, xorijiy tilni, xususan, ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Pedagogik xususiyatdan qaralganda, talabaning faolligini oshirish, o‘quv jarayoniga subyekt sifatida jalb etish, ularning ijodiy salohiyatini namoyon etishga imkon beruvchi sharoitlar yaratish – zamonaviy ta’limning muhim tamoyillaridandir. Aynan shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o‘qitishda talabalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kun ta’limi oldida turgan dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Shunday ekan, xorijiy tillarni o‘qitish sohasida pedagogikaning hozirgi rivojlanish bosqichida ijodiy fikrlashning quyidagi asosiy pedagogik xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin (1-jadval):

1-jadval


Kreativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari

Pedagogik xususiyatlari	Ilmiy-ta’limiy tavsif
Yangi, samarali faoliyatni yaratish	Talabalarning ingliz tili vositasida innovatsion va estetik qiymatga ega bo‘lgan kommunikativ va badiiy faoliyatni vujudga keltira olish salohiyati. Bu jarayon divergent tafakkur va noan’anaviy yondashuvlarni talab qiladi.
Belgilanagan ma’lumotlar asosida yechimlar to‘plamini yaratish	Lingvistik va vizual materiallar asosida konseptual asoslangan, maqsadga yo‘naltirilgan yechimlar va san’at asarlariga mos interpretatsion modellar ishlab chiqish ko‘nikmasi.
Intellektual faoliyat	Kognitiv murakkablik darajasi yuqori bo‘lgan topshiriqlarda tilshunoslik, semiotika va madaniyatshunoslik elementlarini integratsiyalash orqali konseptual fikrlash mexanizmlarini faollashtirish.
Faoliyatga yuqori motivatsiya	Estetik anglash, vizual idrok va lingvistik o‘zaro aloqalar orqali talabaning o‘z-o‘zini anglash, ijodiy o‘z ifodasini topish istagi bilan bog‘liq ichki motivatsiyaning kuchayishi.
Maqsadga erishishda qiyinchiliklarni yengish qobiliyati	Til o‘rganish jarayonidagi kognitiv va psixologik to‘siqlarni badiiy ijod va reflektiv tahlil orqali yengib o‘tish, ijodiy qat’iyat va irodaviy harakatlar bilan mustahkamlash.
Lingvistik ijodkorlik	Leksik-semantik birliklarni san’atshunoslik kontekstida o‘zlashtirish, metafora, personifikatsiya va boshqa stilistik vositalarni ingliz tilida ijodiy tarzda qo‘llay olish layoqati.

Bu xususiyatlar ma’lumotlar bilan ishlash, yangi narsalarni faol o‘rganish, samarali faoliyat va qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayonida shaxsiy fazilatlarni

rivojlantirishni va o'rganilayotgan lingvistik materialdan yangi sharoitlarda foydalanishni o'z ichiga oladi. Demak, ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va motivatsiyani saqlab qolish uchun zamonaviy olimlar o'quv dasturlarini til funksiyalari lingvistik elementlar va texnik mazmun va ko'nikmalariga asoslangan holda ishlab chiqishni taklif qilmoqdalar.

Talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ijodiy sezgirlik, estetik didi, lingvistik ijodkorlik, kolaborativ ijodiy faoliyat, madaniy g'oyalar, o'ziga xoslik, yaratuvchanlik kabi o'zini ifoda eta olish layoqatini rivojlantiruvchi murakkab shaxsiy sifatlar majmuasini, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, yangi g'oyalarni ilgari surish, nostandart muammolarga kreativ yondashish, multimodal ifoda vositalardan foydalanish, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga moslashtirish individual qobiliyatlar hamda texnologik vositalar bosqichma-bosqich aniqlashtirildi(1-rasm).



1-rasm. Talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari

Talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish faqatgina til o'rganish natijasida erishiladigan mahorat emas, balki talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik jarayondir. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik imkoniyatlar tizimi talabalarni o'ziga xos fikrlovchi, yangilikka intiluvchi, estetik didga ega, til vositalari orqali o'zini erkin va samarali ifoda eta oladigan, hamda individual ijodiy qobiliyatlarini namoyon eta oladigan shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy sezgirlik, estetik did, lingvistik ijodkorlik, o'ziga xoslik va yaratuvchanlik kabi shaxsiy sifatlar bu jarayonning asosiy komponentlari bo'lib, ular refleksiya, interaktiv hamkorlik, muammoli vaziyatlar, madaniyatlararo muloqot, texnologik

vositalardan foydalanish orqali bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Shu bilan birga, kreativ kompetensiyani rivojlantirishda multimodal yondashuvlar, kolaborativ faoliyat va shaxsiy tajribaga tayangan topshiriqlar muhim didaktik asos sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shunday qilib, kreativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan didaktik imkoniyatlarning samarali qo'llanilishi nafaqat talabalar til kompetensiyalarining kengayishiga, balki ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga, zamonaviy ta'limda talab etiladigan innovatsion fikrlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa xorijiy tilni o'qitish jarayonining yangicha mazmun va shakllar bilan boyitilishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, ingliz tili amaliy darslarida talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni, kreativ kompetensiyani amalga oshirishning didaktik modeli va oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi.

Kreativlik talaba o'zini-o'zini namoyon qilishning ajralmas atributi bo'lganligi sababli, u hamma narsada, kreativlik imkoniyatini topish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kreativlik va o'zini-o'zi amalga oshirishga yo'naltirilgan kreativ odamlar o'zlarining kasbiy faoliyatidagi yangiliklarga psixologik jihatdan tayyor va kasbiy jihatdan kamroq moyil bo'ladilar.

Tasviriy san'at yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar ijodiy fikrlash, vizual tafakkur va estetik idrok nuqtai nazaridan farqli o'quv ehtiyojlariga ega bo'lishadi. Ularning ingliz tilini o'zlashtirish jarayoni esa bu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bunda kreativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi reflektiv, interaktiv va madaniyatlararo yo'nalishdagi didaktik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Refleksiya asosida o'qitish talabalarining o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va o'rganilgan bilimlarga nisbatan munosabatini anglashini rag'batlantiradi. Bu san'at yo'nalishidagi talabalar uchun o'z ishlari va til orqali ifodalangan konseptlar ustida o'ylash, ularni tahlil qilish imkonini beradi. Misol: write a reflection on how the painting “Starry Night” by Van Gogh uses color and form to express emotion. How would you describe this to someone who cannot see the painting? Bu topshiriq til orqali tasviriy fikrlashni, estetik tahlilni va ijodiy ifodani rivojlantiradi.

Interaktiv hamkorlik (collaborative learning) jamoaviy ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari va guruhli muhokamalar orqali talabalar bir-biridan o'rganadilar, til va san'atni integratsiyalashgan holda o'rganishga intiladilar. Misol: in groups, design an exhibition poster for a contemporary art show. Write a description in English explaining the theme, selected artists, and the intended audience. Bu orqali ham ingliz tili, ham dizayn va reklama ko'nikmalari rivojlanadi, ijodiy hamkorlik takomillashadi.

Muammoli vaziyatlar asosida o'qitish (problem-based learning) talabalarni nostandart yondashuvlarga undaydi va kreativ qarorlar izlashga rag'batlantiradi. Misol:

you are an art curator preparing an exhibition for a global audience. Some artworks include culturally sensitive elements. How would you write an English guide that respects diversity and still explains the message of the artist clearly? Bu turdagi topshiriqlar til, madaniyat va etika masalalarini ijodiy tarzda uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Madaniyatlararo muloqotni integratsiyalash tasviriy san'at madaniy kontekstda tahlil qilinarkan, ingliz tilini o'rganish jarayonida turli san'at maktablari, uslublari va milliy madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish, madaniy sezgirlikni oshirishga xizmat qiladi. Misol: compare the symbolism in traditional Uzbek miniature art with British Pre-Raphaelite paintings. Prepare a short English presentation. Bu topshiriq orqali madaniy idrok, analitik fikrlash va ingliz tilida nutq madaniyati rivojlanadi.

Shunday qilib, tasviriy san'at yo'nalishidagi talabalarda ingliz tilini o'qitish jarayonida refleksiya, interaktiv hamkorlik, muammoli yondashuv, madaniyatlararo muloqot va texnologik vositalarni integratsiyalash orqali kreativ kompetensiyani rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bunday yondashuvlar ijodiylikni rag'batlantiradi, til o'rganishga shaxsiy va madaniy kontekst qo'shadi hamda talabalarning o'z kasbiy identifikatsiyasini xorijiy til orqali ifoda etish salohiyatini oshiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning kreativ (ijodiy) kompetensiyasini rivojlantirish o'quv jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ijodkorlik nafaqat ularning kasbiy faoliyati, balki xorijiy til kompetensiyasining chuqurlashuvi uchun ham muhim omildir. Ingliz tilini o'qitish jarayonida ijodiy kompetensiyani rivojlantirish ta'lim mazmuniga integratsiyalashgan yondashuv, multimodal resurslardan foydalanish va talabalarni reflektiv fikrlashga yo'naltirish orqali amalga oshiriladi.

Kreativ kompetensiya talabaning o'z fikrini original tarzda ifoda etish, yangicha yechimlar topish, noan'anaviy fikrlash, shuningdek, san'at asarlarini tahlil qilish va interpretatsiya qilish orqali ijodiy yondashuvni namoyon eta olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi jihatlar inobatga olinsa talabalarda kreativ kompetensiya samaradorligi sezilarli darajada oshadi:

- ijodiy fikrlash (divergent thinking)
- vizual savodxonlik (visual literacy)
- madaniy anglash (cultural awareness)
- til vositasida ekspressiya qilish (verbal creativity)

Ijodiy fikrlash — bu biror muammo yoki topshiriqqa bir nechta noodatiy va original yechimlar topa olish qobiliyatidir. San'at sohasi talabalarida bu ko'nikma o'z asarlarini konseptual jihatdan asoslab berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Vizual savodxonlik — bu rasm, grafika, belgilar, ranglar kabi vizual elementlarni o'qish, tahlil qilish va baholash qobiliyatidir. Tasviriy san'at yo'nalishidagi ingliz tili darslarida bu komponent san'at asarlarini ingliz tilida tasvirlash va ularni ma'nodosh tarzda sharhlash orqali rivojlanadi. Bu orqali talabalar ingliz tilini estetik va semiotik kontekstda qo'llashni o'rganadi. Madaniy anglash – bu boshqa xalqlarning san'ati, qadriyatlari va madaniy kodlarini tushunish va hurmat qilish qobiliyatidir. Ingliz tili

darslarida turli madaniy kontekstdagi san'at asarlarini o'rganish talabalarini madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi. Shu orqali ular san'atga bo'lgan yondashuvning milliy xususiyatlarini anglashi va o'z fikrlarini global nuqtai nazardan ifodalashi mumkin. Til orqali ekspressiya o'z his-tuyg'ulari, g'oyalari va estetik tasavvurlarini ifodalash uchun til resurslaridan samarali foydalanish qobiliyatidir. Ingliz tilida bu o'z asari haqida og'zaki va yozma shaklda ifoda berish, tinglovchiga ta'sir o'tkaza olish, til vositalari orqali hissiy va semantik ma'no yetkazish bilan bog'liq. San'at asarlari taqdimoti, blog yozuvlari, ijodiy hikoyalar orqali bu ko'nikma rivojlanadi.

Ingliz tilini o'qitishda tasviriy san'at yo'nalishi talabalarining kreativ kompetensiyasi – bu ularning ingliz tilidagi bilim va ko'nikmalarini ijodiy fikrlash, tasviriy ifoda, san'at asarlari orqali tilni o'rganishga yo'naltirilgan qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiyani rivojlantirish uchun bir nechta asosiy komponentlar ajratib ko'rsatiladi:

kognitiv komponent-ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar (san'at, madaniyat, til, kommunikatsiya asoslari) majmuasi;

motivatsion komponent-ijodiy faoliyatga ichki ehtiyoj, qiziqish va tashabbuskorlikni shakllantiruvchi motivatsion omillar;


tafakkur komponenti-divergent, tanqidiy va fleksibil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, g'oyalarni erkin va original tarzda ishlab chiqish;

amaliy-ko'nikma komponenti-kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, san'at asarlari, ijodiy loyihalar va innovatsion mahsulotlar yaratish ko'nikmalari;

emotsional-kommunikativ komponent-his-tuyg'ularni estetik ifoda etish, muloqotda kreativ va madaniyatlararo kompetensiyani namoyon qilish qobiliyati.

Talabalar ingliz tilini faqat grammatika va lug'at asosida emas, balki san'at, tasvir va his-tuyg'u orqali o'rganib, tilni ijodiy va kontekstda qo'llashni o'zlashtirishadi.

Zamonaviy ta'limda o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik tizimlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, tasviriy san'at yo'nalishidagi talabalar uchun xorijiy tilni o'qitishda kreativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik model yaratish zarurati, ta'limning mazmun, metod va vositalarini integratsiyalash, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash, hamda talabaning san'atga oid ijodiy salohiyatini til orqali ifoda etishga imkon beruvchi pedagogik mexanizmlarni tizimlashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Mazkur didaktik model o'z ichiga reflektiv, interaktiv, muammoli, madaniyatlararo va texnologik komponentlarni olgan holda, talabalarini ijodiy ifoda, estetik fikrlash hamda global madaniy kontekstda muloqotga tayyor shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi (2-rasm). Bularning barchasi bizni chet tili ta'limi doirasida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda rejalashtirilgan pedagogik yordam ko'rsatish jarayonining kontseptual qarashlarini aks ettiruvchi didaktik modelni ishlab chiqishga yo'naltirdi. Model 5 blokdan iborat:



2-rasm. Talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik modeli.

Maqsadli blok – bu didaktik modelning strategik yo‘nalishini belgilovchi tarkibiy qism bo‘lib, unda ta‘lim jarayonining umumiy maqsadi, rivojlantirilayotgan kompetensiyaning mazmuni va ta‘limiy vazifalar tizimi aniq ifodalanadi. Konseptual blok ta‘lim jarayonining nazariy-metodik asoslarini tashkil etuvchi komponent bo‘lib, unda ta‘limning asosiy pedagogik va metodologik tamoyillari, yondashuvlari, kompetensiyalar tizimi, pedagogik shart-sharoitlar hamda ta‘lim mazmuni rivojlantiriladi. Mazmunli blok (tarkibiy qismlar va o‘quv materiali) talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning tarkibiy qismlari lingvistik mazmun – ingliz tilining leksik-grammatik, stilistik birliklari (rasm tasviri, estetik baholash uchun); san‘at va madaniyat mazmuni – mashhur asarlar, rassomlar, madaniy kontekst; ijodiy topshiriqlar – vizual hikoya tuzish, san‘at asariga ingliz tilida izoh yozish; madaniy mazmun – turli millatlar san‘atiga oid materiallar, taqqoslash asosida tahlil kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Prosesual blok (o‘quv jarayonini tashkil etishning metodik tizimi) mazkur modelning amaliy-texnologik asosini tashkil etib, kreativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan didaktik vositalar, pedagogik texnologiyalar va metod va shakllar tizimini o‘z ichiga oladi. Ushbu blok talabalarning ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida kreativ tafakkur, divergent fikrlash va transdisiplinar yondashuv asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Diagnostik-natijaviy blokda talaba shaxsida kreativ kompetensiyaning rivojlanish darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan ilmiy asoslangan baholash-me‘yoriy vositalar majmuasi bo‘lib, u mezonlar, ko‘rsatkichlar va ularning rivojlanish darajalari asosida tuziladi. Bu blok talabalarning ijodiy-intellektual salohiyatini, noan‘anaviy fikrlash darajasini, muammoni hal qilishdagi yondashuvlarini sistematik monitoring qilish imkonini beradi.

Model tarkibida farqlanuvchi maqsadli, konseptual, mazmunli, prosesual va diagnostik-natijaviy bloklar orqali didaktik ta‘sir vositalarining ketma-ketlikda va o‘zaro integratsiyada amal qilishi ko‘zda tutiladi. Ayniqsa, diagnostik blok orqali talabada mavjud kreativ salohiyat aniqlanadi va mezon-indikatorlar asosida differensial yondashuvlar rivojlanadi. Modelda zamonaviy raqamli vositalar (Padlet, Canva, Flipgrid) orqali vizual-estetik va kommunikativ faoliyatni uyg‘unlashtirish, interfaol va kooperativ metodlar orqali til va san‘atning transdisiplinar integratsiyasi ta‘minlanadi. Natijada, talaba shunchaki til egallovchi emas, balki shaxsiy kreativ tafakkur asosida o‘zining madaniy-estetik qarashlarini ingliz tilida ifoda eta oluvchi ijodiy shaxs sifatida rivojlanadi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, xususan, ularning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday kompetensiyani samarali rivojlantirish esa puxta ishlab chiqilgan va didaktik jihatdan asoslangan metodik tizim mavjud bo‘lishini talab qiladi. Metodik tizim o‘qitishning maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalarining o‘zaro uyg‘unlashgan tizimidir. U nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki ijodiy fikrlash, estetik idrok va individual ifoda ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Tasviriy san‘at yo‘nalishida ta‘lim olayotgan

